Bugungi kunda viloyatda 829 ta madaniy meros obyektlari (MMO) bo'lib, ularning 139 tasiga sayyohlar tashrif buyurishi uchun imkoniyat yaratilgan, 175 ta MMO ta'mirlalab holatda bo'lib, ularni restavratsiya qilish ishlari olib borilmoqda. MMOning 8 tasi mehmonxona, mos ravishda 14 tasi restoran sifatida faoliyati tiklangan. 51 ta masjid, ansambl, xonaqo va madrasalar esa ziyoratgoh sifatida MMO ro'yxatidan joy olgan (1-rasm).

Bugungi kunda ziyoratchilar bu muqaddas joylarni shifo topish ilinjida, farzand ko'rish umidida, tavba qilish, ish yoki o'qishda muvaffaqiyat qozonish, nazr qilish, so'fiy ibodatlarini ado qilish, zikr qilish, muqaddas kun va sanalarni nishonlash maqsadlarida ziyorat qilmoqdalar. Vaholanki, hududda bunday muqaddas maskanlar 156 tadan ortiqni tashkil etadi.



1-rasm. 2020-2024-yillar kesimida Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlarining soni va ulardan foydalanilish maqsadi.




Xorijlik va ichki musulmon sayyohlar orasida “Yetti Pir” (XII-XIV asrlar), Poyi Kalon ansambli (XII-XVI asrlar), Chor Bakr ansambli (XVI asr), Chashmayi Ayub maqbarasi (XII asr), Bolo Hauz masjidi (XVIII asr), Ismoil Somoniy (X asr), Sayfiddin Boxarziy maqbaralari (XIII asr) eng mashhur va gavjum ziyoratgohlar sarasiga kiradi. Qolgan ko'plab muqaddas qadamjolar madaniy bilish turizmi marshrutlari tarkibiga kiritilib Islom va boshqa din vakillari tomonidan ziyorat qilinmoqda [5].

O'zbekiston Respublikasi hududiga ziyoratchilarni yanada jalb qilish maqsadida “Umra+” dasturi yo'lga qo'yilgan. 2024-yil 21-fevral kuni Buxoroga ilk marotaba “Umra+” yo'nalishi orqali ziyorat amallarini bajarish maqsadida 40 nafar malayziyaliklar tashrif buyurdi. Xorijiy ziyoratchilar “Yetti Pir”, shaharning Eski shahar qismi bo'ylab ziyorat amallarini ado etib, Umruga yo'l olishdi. Samitol tour va Singapurning Pelago kabi turoperatorlik tashkilotlari tomonidan Malayziya va Indoneziyalik ziyoratchilar uchun Toshkent, Samarqand, Buxoro viloyati bo'ylab ziyorat turlar tashkil etilmoqda.

Buxoro viloyati turizm boshqarmasining 2024-yilning statistik ma'lumotlariga ko'ra jahon mamlakatlaridan 1745200 nafar xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatilgan. Bunda Yevropa davlatlarining ulushi - 21 foiz, Amerika qit'asidan - 2,2 foiz, Osiyo – 20,6 foiz, MDH davlatlari – 55,37 foiz, boshqa mamlakatlar – 0,83 foiz korsatkichni aks ettirgan. “O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!” dasturi doirasida esa Respublika hududlaridan Buxoroga 4 milliondan ortiq mahalliy sayyohlar tashrif buyurdi [4].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 543-sonli qaroriga asosan, birinchidan, 2022-2026-yillarda xorijiy va mahalliy turistlar sonini 5 mln nafarga, eksport hajmini 600 mln AQSh dollariga yetkazish, ikkinchidan, viloyatdagi 800 dan ziyod madaniy obyektlarni birma-bir restavratsiya qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni ko'rib chiqish, uchinchidan, ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish, yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish, jumladan, turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan 2024-sentabr oyiga qadar Bahovuddin Naqshband hayotlari va tasavvuf tarixi bilan bog'liq “Qasri orifon” nomi brendi ostida “Yetti pir” ziyoratgohlari bo'yicha turizm mahsulotlarini ishlab chiqish va targ'ib qilish, Buxoro shahrini xorijiy mamlakatlardagi tasavvuf markazlari bo'lgan shaharlari bilan “birodar shaharlar” kelishuviga erishish, to'rtinchidan, xalqaro masshtabda turizm salohiyatini targ'ib qilish va madaniy turizm tadbirlarini tashkil qilish kabi vazifalar belgilanib, ularni bajarish uchun amaliy choralar ko'rilmogda.



2-rasm. 2020-2024-yillarda Buxoro viloyatida sayyohlik sohasidan olingan daromaddan ziyoratgohlarga tushgan tushumning ulushi.

2024-yilda xizmatlar eksporti 436,30 million AQSH dollarini, mahalliy sayyohlardan olingan tushum esa 802,1 milliard so'mni tashkil etib, ziyoratgohlarga 4,30 milliard so'm miqdorida tushum qilindi (2-rasm). Bu barcha ko'rsatkichlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23-29 foiz atrofida o'sish natijalarini aks ettirgan.

2024-yilda Buxoro viloyati turistik potensialini oshirish maqsadida hudud bo'ylab umumiy qiymati 111 million AQSH dollarlik investitsiya jalb qilinib, 38 ta turizmga oid loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur loyihalar 25 ta turistik xizmatlarni qamrab olib, natijada, 2500 nafar kishini ish bilan ta'minlashiga, eng muhimi sayohat davomiyligi 5-6 kunga uzaytirilishiga erishiladi. Bular ichida ziyorat turizmini rivojlantirish loyihalari ham bo'lib, shulardan biri Sayfiddin Boxarziy ziyoratgohi hududida tashkil etilishi rejalashtirilayotgan "Islom tamadduni namoyandalari" xiyobonidir.

Mazkur xiyobonda islom dinining namoyondalari Abu Hafs Kabir, Abu Bakr Kalobodiy, Mustamliy Buxoriy, Hazrat Poyanda Muhammadshoh Axsaviy (Fayzobod) kabi yetuk allomalarning memoriallari, masjid binosi, tahoratxona, hunarmandchilik markazi, mehmonxona, kutubxona, anjumanlar zali kabi bir nechta obyektlar barpo etilishi ko'zda tutilgan.

2024-2026-yillarga qurilishi belgilangan "Boqiy Buxoro" tarixiy-etnografik parki 470 million AQSH dollarlik loyiha sifatida baholanib, 32,6 gektarlik maydonni egallaydi. Bu yerda an'anaviy Buxoro me'morchiligini zamonaviy shaharsozlik uslublari bilan uyg'unlashtirgan obyektlar bo'ladi. Etnografik muzey, Buxoro vohasiga xos tarixiy mahallalar, choyxonalar, milliy taomlar taqdim etiladigan restoranlar, an'anaviy drenaj tizimlari, hunarmandlar rastalari va turli hunarmandchilik ustaxonalari shular jumlasidandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada analiz va sintez, monografik tahlil, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, xaritalash, ACES 3.0 metodikasi kabi turli ilmiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan. Bu metodlar yordamida ziyorat turizmi sohasidagi mavjud holatlar chuqur o'rganilib, kompleks tahlillar va takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yetti pir – Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoni, Xo'ja Muhammad Orif ar-Revqariy, Xo'ja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xo'ja Ali Romitaniy, Xo'ja Muhammad Boboyi Samosiy, Xo'ja Sayyid Amir Kulol va Xo'ja Bahouddin Naqshband ziyoratgohlari kompleks ravishda musulmon olamida e'tirof etilib, bugungi kunda ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Bu joylarda sayyohlar uchun avtoturargohlar, savdo markazlari, mehmonxonalar, choyxonalar barpo etilmoqda, 7 pir ziyorat klasteri shakllanmoqda, ziyoratgohlarni bog'lovchi yo'llar qaytadan qurilmoqda. "Yetti pir" turistik marshruti ham shakl, ham mazmunan murakkab qiyofa kasb etib, bu ziyoratgohlar bo'ylab ziyorat qilish Buxoroning "tashrif qog'ozi"ga aylangan.



3-rasm: "Yetti pir" ziyorat turizm marshruti.

Nazariy va empirik o'rganishlar natijasida Buxoro va uning atrofida 156 ta yetib borish imkoniyati bo'lgan avliyolar qabrlari va ziyoratgohlari borligi, ayrimlari esa qarovsiz holatda ekanligi aniqlandi. Vaholanki, bugungi kunda viloyatda ziyorat turizm obyektlari soni 51 ta, shulardan 46 tasi islomiy ziyorat turizm obyektlari deb e'tirof



etilgan. Biz ushbu tadqiqot ishining keyingi bobida mazkur muqaddas qadamjolarga sayohatlarni tashkil etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqdik.

156 ta tabarruk maskandan 9 tasi ayol so'fiy va avliyolarning muqaddas qadamjolari bo'lib, musulmon ayollarning ziyoratini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Hududda xalq tabobatiga asoslangan ziyorat turizmi va ilmiy-ma'rifiy ziyorat turizmi yo'nalishlarini ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

Ziyorat turizmning asosini Halol turizm yoki boshqacha qilib aytganda islomiy turizm tashkil etadi. Ya'ni, halol sayohat talablari asosida shariatga asoslangan taklif tizimi yaratiladi. Buxoro viloyatida musulmonlarga do'stona turizmni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'plab sa'y-harakatlar bo'lishiga qaramay, bu borada hali bajarilishi kerak bo'lgan ishlar anchagina. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, ma'lumotlarni tahlil qilish, mintaqaga ziyoratchilar tashrifini ta'minlash, barqarorlik bilan bog'liq muammolar, xizmat ko'rsatish darajasining pastligi, ma'lumot yetishmasligi va musulmon ziyoratgohlariga yetib borishdagi qiyinchiliklar va hokazo.

Eng asosiy masalalardan biri manfaatdor tomonlarning mintaqada halol sayohatni ilgari surish zaruratidan bexabarligi. Bu mahalliy hokimiyat organlari, tadbirkorlar va keng jamoatchilik tomonidan turizmning ma'lum tushunchalari yoki tamoyillarini noto'g'ri talqin qilishi va bilishidan dalolat beradi. Turizm qo'mitasi, halol turizmning o'sishiga oid mintaqaviy qonunlar ijrosi orqali aniq siyosat yoki tartibga solish yo'qligiga qaramay, turizmning boshqa yo'nalishlari bilan hamohang holda musulmon ziyorat turizmini nazorat qilishda davom etmoqda.

Turizm iqtisodiga to'g'ridan-to'g'ri hissa qo'shadigan joylashtirish vositalari, transport, ovqatlanish shahobchalari, diqqatga sazovor joylar va musulmonlar uchun qulay sayyohlik muhiti kabi omillarni me'zonlash hududda halol turizmni yanada rivojlantirilishiga turtki bo'ladi.

Ushbu tadqiqot musulmon ziyoratchilar uchun xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ular uchun eksklyuziv xizmat turlarini taqdim etish orqali kutilgan natijalarini yuqori darajaga olib chiqib, ziyoratchilar oqimini oshirish, ziyorat turlarining tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini baholash va uni yaxshilashga qaratilganligini inobatga olgan holda ziyorat turizmni tashkillashtirishda bizga halol turizm standartlari asos bo'ladi. Shu maqsadda tadqiqotda ziyoratchilarning safari davomida duch keladigan muammolarni ACES 3.0 metodikasi mezonlari [6] asosida tahlil qilishni afzal bildik.

Jahon Musulmon Sayohati Indeksi CrescentRating tomonidan chop etiladigan yillik hisobot bo'lib, unda mamlakatlar va shaharlarni musulmon sayohatchilarga do'stona turizmni tashkil etish darajasi hududlarning halol oziq-ovqat mavjudligi, musulmonlar uchun qulaylik va diniy obyektlar kabi omillarni hisobga olgan holda ACES 3.0 metodikasi asosida baholanib, reytingi tuziladi.

Shu sababli, hududning sayyohlik samaradorligini ACES – hududga yetib kelish osonligi (access), kommunikatsiya (communication), turizmni qo'llab-quvvatlovchi atrof-muhit (environment) va xizmatlarni (services) baholash orqali aniqlash muhim sanaladi.

Ushbu paragrafda Buxoro musulmonlarga do'stona turizm rivojlangan hudud sifatidagi reytingini aniqlash uchun "Jahon Musulmon Sayohati Indeksi ACES 3.0" metodikasi asosida tahlil qilindi. Mazkur analitik metod hududga musulmon sayyohlarning tashrifi, ular uchun yaratilgan shart-sharoit hamda ko'rsatiladigan xizmatlarni JMSI ballari bilan klassifikatsiyalash orqali musulmon ziyorat turizm bozorida Buxoroning pozitsiyasini belgilab beradi.

Buxoro viloyati JMSIning Trailblazer (yetakchi) mamlakatining asosiy ziyorat destinatsiyasi sifatida musulmon sayyohlarni mamlakatga jalb etishda muhim rol o'ynaydi. 1-jadvalda hududga yetib kelishning osonligi, uning ichki va tashqi aloqa qobiliyati, mintaqaning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muhiti hamda taqdim etilayotgan xizmatlarni o'rganish davomida quyidagilar aniqlandi.

1-jadval. 2024-yilda Buxoro viloyatidagi ziyorat turizm obyektlarining ACES 3.0 metodikasi mezonlari bo'yicha tahlili.

Zarur sharoitlar	Barcha turdagi sayyohlar uchun foydalanish imkoniyati	Musulmon ziyoratchilar uchun foydalanish imkoniyati
YETIB KELISH OSONLIGI		
Viza tizimi	- 91 ta xorijiy davlatlar uchun vizasiz rejim - 57 davlat uchun elektron kirish vizasi tizimi - 101 davlat fuqarolariga vizasiz tranzit	- Bahrayn, Qatar, Quvayt, Ummon davlati fuqarolari uchun 10 kungacha vizasiz rejim tizimi - Diniy maqsadda tashrif buyuruvchilar uchun "Ziyorat vizasi"
Transport infratuzilmasi	- Sayyohlik marshrutida 307 ta avtotransport vositasi faoliyat ko'rsatadi. - Mintaqaviy va hududiy temir yo'l aloqalari mavjud.	- So'rovga asosan xohlagan avtotransport vositasini ijara olish yoki buyurtma berish mumkin - Chegaradosh davlatlar bilan bog'lovchi temir yo'l aloqalari yo'lga qo'yilgan.



Aloqa	Dunyoning 15 davlatidan Buxoro xalqaro aeroportiga to'g'ridan-to'g'ri xalqaro reyslar	- 9 musulmon davlatidan Buxoro xalqaro aeroportiga to'g'ridan-to'g'ri xalqaro reyslar - so'rov bo'yicha charter reyslari
XIZMATLAR		
Joylashtirish vositalari	580 ta joylashtirish vositalari	- 98 ta mehmonxona musulmonlar uchun qulay sharoitlarni taklif etadi - ziyoratgohlar hududlaridagi mehmonxonalar - qibla yo'nalishi va namoz o'qish joylari
Aeroportlar	xalqaro aeroportning jo'nash zonasida ikki yo'lakli tizim ("yashil" va "qizil")	- namoz va tahorat xonalari - Dam olish va bayram kunlarida xizmatlar stavkasi 50% gacha pasaytiriladi
Ziyorat qilinadigan joylar	- 106 masjid - 51 ta ziyoratgoh	- 106 ta masjidda faqat erkaklar namoz o'qish uchun imkoniyatlar mavjud - 46 ta islomiy ziyoratgoh - ba'zi ziyoratgohlarda ayollar ibodat qilish uchun imkoniyatlar mavjud - asosiy ziyoratgohlar tahorat xonalari bilan jihozlangan
Halol ovqatlanish	116 ta restoran sayohatchilarga xizmat ko'rsatadi	- Ulardan 10 tasi halol taomlarni taklif etadi - 1 ta restoran "Halol" sertifikatiga ega - musulmonlarga qarashli qassoblarning mavjudligi halol go'shtni ta'minlaydi
Qo'shimcha imkoniyat va qulayliklar	Barcha turdagi sayyohlar uchun foydalanish imkoniyati	Musulmon ziyoratchilar uchun foydalanish imkoniyati
KOMMUNIKATSIYA		
Destinatsion Marketing	Turizm salohiyatiga kompleks yondashuv orqali marketing	- "Yetti Pir" turistik marshruti Buxoroning "tashrif qog'ozi" sifatida
Kommuni-kativlik	-Turizmida 27502 kishi ish bilan band - Ulardan 305 nafari gidlardir	- Rus tili ikkinchi til sifatida - barcha xizmat ko'rsatish xodimlari ingliz tilini bilishadi - arab, turk, fors tillarida sanoqli darajada gid-tarjimonlar xizmat ko'rsatadi - sohada faoliyat yuritadiganlar orasida fransuz va nemis tillarida so'zlashiladi
Soha vakillarining musulmon sayyohlarga xizmat ko'rsatishda yetarli malakaga ega ekanligi	Turizm bozori xalqaro turistik manfaatlardan kelib chiqqan holda baholanmoqda	Jahon musulmonlarining Buxoro ziyoratiga qiziqish sabablari o'rganilmoqda
TURIZMNI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI ATROF-MUHIT		
Barqarorlik	Resurslarni tejash, energiya samaradorligiga urg'u berilmoqda	Madaniyatni saqlash, an'analarni e'tirof qilish va mahalliy hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash
Umumiy xavfsizlik	O'zbekiston "Safety Perception Index 2023" da 121 davlat orasida 1-o'rinni egalladi	O'zbekiston musulmon sayohatchilar uchun yaratilgan xavfsizlik, sharoit va qulayliklar bo'yicha dunyoda 8-o'rinda turadi
E'tiqod cheklovlari	O'zbekiston diniy-dunyoviy davlat bo'lib, qat'iy diniy qonunlarga ega emas, balki diniy bag'rikenglik tamoyiliga amal qiladi	Yopiq yuzli niqobga ruxsat berilmaydi
Imkoniyati cheklanganlar uchun xizmatlar	Ko'rish, eshitish va jismoniy nuqsoni bor sayyohlar uchun sayohat qilish va dam olishda deyarli qulayliklar yaratilmagan.	Ko'rish, eshitish va jismoniy nuqsoni bor sayyohlar uchun sayohat qilish va dam olishda deyarli qulayliklar yaratilmagan.



JMSI ACES metodikasi tahlili asosida 1-jadvalda Buxoro viloyatining musulmon ziyoratini rivojlantirishdagi zaif tomonlari, ziyorat jarayoniga to'sqinlik qilayotgan muammolar, Buxoroni ziyoratgoh sifatidagi avvalagi maqomini tiklash muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Ziyoratchilar statistikasini yuritishning asosiy yo'llari, viza tizimini nazorat orqali amalga oshirilsada, lekin 2019-2024-yillar mobaynida PLG (Pilgrim visa) ziyorat turizm vizasidan foydalanganlar soni e-mehmon xorijlik mehmonlarni online ro'yxatga olish tizimiga kiritilmagan. Mutasaddi tashkilotlar bilan bog'lanib, ziyorat turizm vizasi to'g'risida ma'lumot so'ralganda, ba'zilarining bu haqida hatto ma'lumotga ega emasligini aniqladik.

Mahalliy hokimiyat va mas'ul tashkilotlar Buxoro viloyatida Halol turizmni rivojlantirishda kommunikatsiya, Atrof-muhit va Xizmatlar ko'rsatkichlariga alohida e'tibor berishi kerak. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Buxoro musulmon davlatlari orasida diniy, ma'naviy mavqeini ko'rsatgan holda ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilinishi kerak. Buxoroda eng asosiy muammo "Halol" sertifikatlash tizimidir. Ayni paytda "O'zstandart" agentligi qoshida "Halol" sertifikatlashtirish markazi faoliyat yuritib, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarni sertifikatlaydi. Biroq, ziyorat turizmi din va turizm masalalari bilan bog'liqligini inobatga olib, musulmonlarga mos sayohatlarni sertifikatlash jarayonini nazorat qiluvchi alohida boshqarma tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Indoneziya va Malayziyadan keladigan xalqaro musulmon ziyoratchilarning ko'pchiligini hisobga olsak, Buxoroda ular til to'siqlariga duch kelishmoqda. Musulmon sayohatchilar so'zlashadigan 10 tilni turizm sohasi xodimlari orasida o'rganilishini keng yo'lga qo'yish kerak. Bahasa-malay tilini biladigan gidlar nafaqat shaharda, balki butun mamlakatda kam uchraydi. Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-269-son qaroriga binoan 2024-2025 o'quv yilidan boshlab Respublikasining 7 ta oliy ta'lim muassasasida arab, indonez va malay tillarida xizmat ko'rsatuvchi gid-tarjimonlarni tayyorlash bo'yicha qo'shimcha kurslar tashkil etilishi belgilandi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 543-sonli qaroriga asosan Rossiya Federatsiyasi vakillari, Chechen xalqi uchun Mir Arab madrasasini bog'lagan holda "Ahmad Hoji Qodirov izidan", Tataristonda "Shahobutdin Marjoniy izidan" nomli maxsus turpaket ishlab chiqib keng targ'ib qilish orqali ziyorat sayohatlarni tashkil qilish vazifalari mas'ul tashkilotlarga birlashtirib berilgan.

Qaror ijrosiga ko'ra esa davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilganligini, targ'ibot ishlari keng miqyosda olib borilganligini, biroq, ziyorat safarlari tashkil etilmaganligini aniqladik.

Bundan tashqari, hududda ziyoratchilar quyidagi muammolarga ham duch keladilar, jumladan:

Ziyorat turizm iste'molchilarida yo'nalish bo'yicha ma'lumotlarning yetishmasligi. Viloyatga tashrif buyuruvchi ziyoratchilar diniy safarlarini mustaqil ravishda tashkil etishda qaysi ziyoratgohlar borligi, ularning joylashgan joyi, qanday yetib borish mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qidirishda ko'p vaqt sarf qilishadi. Misol uchun, agar ziyoratchilar shahar ichidagi avliyolar qadamjolarini ziyorat qilishni xohlasa, uning mobil xaritasi shakllanmagan. Yoki, viloyatdan kelgan ziyoratchilar "Yetti Pir" ziyoratini amalga oshirishda odatda turoperatorlik tashkilotlariga murojaat qilishadi. Agar Buxoroning "Muslim Travel Guide" yo'riqnomasi hamda ziyoratgohlar xaritasi yaratilsa, mustaqil ravishda ziyorat qiluvchilar soni ko'payadi, iqtisodiy jihatdan kam xarajat qilib, yuqori taassurot olishadi, degan fikrdamiz.

Muqaddas qadamjolar bo'ylab turizm infratuzilmasi yaxshi rivojlanmaganligi. Hozirgi kunda asosiy e'tibor "Yetti Pir", uni atrofida turistik infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan. Lekin, shahar ichi va tumanlarda joylashgan bir necha qadamjolar, valiyalar qabrlariga borish uchun yo'l ko'rsatkich belgilari mavjud emas, uzoq masofali hududlarda tahoratxonalar, ayollar uchun namozxonalar, "Halol" sertifikatiga ega ovqatlanish shaxobchalari, mehmonxonalar faoliyat ko'rsatmaydi.

Ziyorat turizm - an'anaviy (klassik) turning bir qismi. Turoperatorlik tashkiloti tomonidan Buxoro viloyati bo'yicha faqat "Yetti Pir" ziyorat turizm yo'nalishi taklif etiladi, Chashmai Ayub, Ismoil Somoniy maqbaralari, Miri Arab, Ulug'bek, Nodir Devonbegi madrasalari kabi qolgan ziyoratgohlar madaniy turistik yo'nalishlar tarkibida ziyorat qilinib, barcha din vakillari uchun uyushtiriladi. Buxoro shahridagi Fayzobod xonaqosi, Abu Hafs Kabir, Romitandagi Xo'ja Ubbon, Xo'ja Zafaron, G'ijduvondagi Xo'ja Porso, Jondordagi Qizbibibi ziyoratgohlari, XVI asr hammomlarining fazilatlar, shifo xususiyatlari to'g'risida eshitgan shaxslar mustaqil safarlar uyushtirishadi. Agar ular uchun ham "Mushkulkushod", "Ilohiy xalq tabobati", "Bepushtlikni ilohiy davolash" ziyorati nomli maxsus maqsadli turlar ishlab chiqib taklif etilsa, albatta bu muqaddas maskanlarning ziyoratchilari soni yil sayin oshadi. Tadqiqot ishining uchinchi bobida biz shunday maxsus tur taklifini ishlab chiqdik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi kamchiliklarni inobatga olgan holda Buxoro viloyatining ziyorat turizm markazi sifatidagi maqomini oshirish, hududdagi muqaddas qadamjolarida turistik infratuzilmani yaxshilash maqsadida ACES 3.0 metodikasini mahalliy darajaga moslashtirib amaliyotga tadbiq etish hududning ziyorat turizmni tashkil etishga tayyorlik darajasini aniqlashga yordam beradi.



Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda xususan Islom tamadduni bo'lgan Buxoroyi Sharifda ziyorat turizmni sohaning strategik tarmog'iga aylantirish uchun ham mintaqaviy, ham hududiy darajada ko'rsatilayotgan tashabbuslar ziyorat turizmning yaqin orada ommalashishiga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abramson, D. M., & Karimov, E. E. (2007). 20. Sacred Sites, Profane Ideologies: Religious Pilgrimage and the Uzbek State. *Everyday life in Central Asia: Past and present*, 519.
2. <https://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. <https://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb sayti
4. <https://www.uzbektourism.uz> – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit va iqlim o'zgarishi Vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining rasmiy veb sayti
5. Kurbanova, M. (2023). Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. *Economics and Innovative Technologies*, 11(1), 418-427.
6. Mastercard-CrescentRating. *Global Muslim Travel Index*. 2024
7. Muhamad, N. S. A., Sulaiman, S., Adham, K. A., & Said, M. F. (2017, August). Halal tourism: literature synthesis and direction for future research. In *International Halal Management Conference (IHMC)* (pp. 1-13).
8. Navruz-Zoda, B. N., Ibragimov, N., & Rakhmanov, A. (2019). Perspectives on the improvement of Uzbekistan as a destination for multi-confessional self-organised pilgrims. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*, 7(4), 11.
9. Rehman, A. (2020). Halal tourism: guidelines for Oman. *International Journal of Islamic Marketing and Branding*, 5(1), 1-16.
10. Taher, K. S. (2008). History of Tourism in Islam. *Islamic Tourism*, 34, 54-48.
11. Timothy, D. J., & Olsen, D. H. (Eds.). (2006). *Tourism, religion and spiritual journeys* (Vol. 4). London: Routledge.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
